

**TARBIYASI OG'IR BO'LGAN VOYAGA YETMAGANLAR BILAN ISHLASH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA AYRM XORIJY DAVLATLAR TAJRIBASI****Aminov Sharif Nasimovich***O'zbekiston Respublikasi**IIV Akademiyasi dotsenti, (PhD)***Mirsalixova Guzal Aloutdinovna***O'zbekiston Respublikasi**IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliada va jamiyatda yoshlar tarbiyasiga e'tibor berish va ularni to'g'ri yo'lga boshlash, jamiyat va davlat kelajagi uchun muhim jihatlardan biri ekanligi va shu boisdan aynan ushbu masalada xorijiy davlatlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning ijobiy jihatlarini Respublikamizda amalga tatbiq etishga oid masalalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, ta'lim, voyaga yetmagan, ijtimoiy himoya, ijtimoiy tarmoq, global muammo, terrorizm, ekstremizm, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, qonunchilik normasi, qonuniy asoslar, tarbiga solish, ilg'or metodlar, tajriba, jinoyatchilik darajasi.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida buyuk kelajakka intilib yashash tuyg'usini mustahkamlashdan iborat. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarning tashabbusi bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish boarsidagi islohatlarning hayotimizning boshqa sohalari bilan uzviy bog'lanagn holda, tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan strategiyasi belgilab olindi. Unga, asosan, yoshlar huquqbuzarliklarini himoya qilishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarida islohatlar amalga oshirilmoqda. Shuni ayotish kerakki, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik biz kattalarning ularni tarbiyalashda yo'l qo'ygan jiddiy xatolarimiz oqibatidir. Binobarin, shuning uchun ham ruhiy va manaviy jihatdan shaxs sifatida shakllanmay qolib, huquqbuzarlik sodir etgan yoshlarni jamiyat hayotiga moslashtirib ular bilan doimiy ravishda individual profilaktik chora tadbirlarni olib borish lozim. Ma'lumki, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir bo'layotgan huquqbuzarliklarini oldini olish va ular bilan samrali chora tadbirlar olib borish masalsi har doimgidanham jiddiy ko'rinish olib boirganligini inobatga olib bu sohada faoliyat yurutuvchi aloxida o'zgarish sifatida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining buyrug'iga ko'ra voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari lavozimlari joriy etildi. Jumladan, Toshkent shahrida ushbu faoliyat voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari profilaktika inspektorlari tomonidan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Yevropa mamlakatlari orasida tarbiyasi og'ir bo'lgan voyaga yetmaganlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos jihatga ega bo'lgan tizim Fransiyada shakllangan. Fransiyaning to'liq mahalliy byudjet hisobidan ta'minlanadigan munitsipal politsiyasi shaharlar va boshqa aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlaydi hamda voyaga yetmagan shaxslar bilan shug'ullanadi va bu borada ular Milliy politsiya bilan uzluksiz

hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Fransiya Milliy politsiyasiga politsiyaning barcha funksiyalari, jumladan, voyaga yetmaganlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyati masalalari vazifasi ham yuklatilgan bo'lib, ularni samarali ta'minlash maqsadida, uning tarkibida yigirmaga yaqin bosh boshqarma, boshqarma, markaz, institut va xizmatlar faoliyat olib boradi. Milliy politsiya tarkibidagi yoshlar bilan ishlash boshqarmasining asosiy vazifasi bevosita voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini ko'tarish masalalari bilan ham shug'ullanadi. Bosh boshqarmaning faoliyati quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan: ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatish, huquqiy savodxonligini oshirish, ularning mamlakatda o'rnatilgan huquq normalariga rioya qilish bo'yicha tartib qoidani nazoratini amalga oshirish, aholiga yordam ko'rsatish, huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, huquqni muhofaza qilish, xususan katta bo'lmagan miqdordagi zarar yetkazilishi bilan bog'liq jinoyatlarni surishtirish va tergov qilish; jamoat tartibini saqlash va qayta tiklash. Shuningdek, jamoat tartibini saqlash va voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalari o'ziga xos tartibda Milliy politsiyaning chegara hududlari, temir yo'llar va havo transporti hududlarida xizmat olib boruvchi hududiy politsiyasi boshqarmasi, asosiy vazifasi Respublika darajasidagi ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash va uni bartaraf etish hisoblangan Respublika xavfsizlik korpusi markaziy xizmati kabi mustaqil tarkibiy tuzilmalari tomonidan ham amalga oshiriladi. Fransiya IIV Milliy politsiyasi singari Bosh direksiya rahbarlik qiluvchi Bosh boshqarma ham voyaga yetmaganlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Jandarmeriya qishloq hududlarida va mamlakat aholisining yarmini, davlat xududining 90 foizini tashkil etuvchi uncha katta bo'lmagan shaharlarda politsiya vazifasini bajaradi.

Yaponiyada esa politsiyaning maxsus ilmiy tadqiqot instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Uning tarkibida psixologiya, tarbiyaviy ishlar va sharoitlarni o'rganish uchun alohida laboratoriyalar mavjud bo'lib, ularning har biri voyaga yetmaganlarni (asosan qurbonlarni); ayrim turdagi va guruhdagi jinoyatchiliklarning viktimologiyasi bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib boruvchi institut ham faoliyat ko'rsatadi.

AKShning shtat politsiyasi - eng ko'p guruhli, hamma narsa bilan shug'ullanadi: ba'zan federal masalalar bilan shug'ullanadilar, shuningdek voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan mayda o'g'irliklar, giyohvand moddalarini sotish yoki iste'mol qilishga qarshi jinoyatlar buyicha hamda boshqa shu kabi jinoyatlarga qarshi kurashadilar.

Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirining «Politsiya xududiy uchastka inspektorining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» gi buyrug'i bilan tasdiklanib quyidagilar belgilangan:

Xududiy politsiya uchastka inspektori - tegishli ma'muriy-hududda yashovchi fuqarolarning huquqlari, shuningdek, hududida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyat yoki xukukbuzarliklar ta'siridan, fuqarolarni himoya qilishga qaratilgan xizmat faoliyatini amalga oshiruvchi rasmiy Rossiya politsiyasining - uchastka inspektori hisoblanadi.

Hududiy politsiya uchastka inspektori ichki ishlar organlari faoliyatining deyarli barcha sohalarida keng vakolatlarga ega. Masalan, tarbiyasi og'ir bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ta'sir choralarini qo'llashi mumkin. Ma'muriy jazo tayinlash bo'yicha xududiy politsiya uchastka inspektorining alohida vakolatlari Rossiya Federatsiyasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksida (Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy Kodeksi) belgilangan.

Malumki, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir bo'layotgan huquqbuzarliklarini oldini olish va ular bilan samrali chora tadbirlar olib borish masalsi har doimgidan ham jiddiy ko'rinish olib borvyotganligini inobatga olib bu sohada faoliyat yurutuvchi aloxida o'zgarish sifatida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining buyrug'iga ko'ra voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari lavozimlari joriy etildi. Jumladan, Toshkent shahrida ushbu faoliyat voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari profilaktika inspektorlari tomonidan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash faoliyatini ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar, tuman va viloyat hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamkorlikda tashkil etadi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan bevosita ishlash tayanch punktlari profilaktika inspektorlari hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (bo'linmalari, guruhlar) voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu sohada amalga oshirilgan eng katta islohatlardan biri bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki voyaga yetmaganlar bilan alohida faoliyat olib boiruchi profilaktika inspektorlari faqat voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etilgna huquqbuzarliklar yuzasidan ishlarni olib borib ular bilan yakka tartibdagi profilaktika chora tadbirlarini amalga oshirish bilan bir qatorda adashib huquqbuzarlik va jinoyatlar yo'liga kirib qolgan voyaga yetmaganlar va yoshlar hamda uyshmagan yoshlar bilan ham alohida viktimologik profilaktikani amalga oshirib ularni mamalaktimizning amaldagi qonun pormalriga itoat ruhida tarbiyalash borasida o'zlarning munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Yurtimizda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishning barvaqt oldini olish va ularning oqibatlarini minimallashtirish borasida va yoshlarni vatan ravniqiga va jamiyatga nafi tegadigan faoliyat bilan shug'ullanishlarini amalga oshirish bo'yicha mamlaktimizda bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, ularning huquqbuzarliklarni kelib chiqish sabab-sharoitlarini atroflicha o'rganib chiqilib amalyoitchi mutahassis hodimlar va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi o'qituvchi, professor va mutahassislari tomonidan bir qancha fikr mulohazalar berib borilmoqda. Xususan, bugungi kunda respublika miqyosida jinoyat va xuquqbuzarlik sodir qilgan yoshlarning ko'proq qismini uyushmagan yoshlar tashkil yetadi. Buning sababi yoshlarning xuquqiy savodxonligining pastligi hisoblanadi. Ushbu yoshlarimizning xuquqiy savodxonligi, bandligi va hayotga nisbatan faolligini oshirish maqsadida har bitta mahallalarda repititjr markazlarini tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu repititor markazida uyushmagan yoshlarning vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun kutubxona va turli fanlardan (aniq fanlar ijtimoiy-gumanitar fanlar, chet-tili fanlari,) to'garaklar tashkil qilinsa uyushmagan yoshlarning OTMga kirishi va jinoyatchilikni oldini olishga ozgina bo'lsa ham xissa qo'shgan bo'lamiz. Qolaversa, mamlaktimizda voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqbuzarliklari nimalgini va uning oqibatlari, kelib chiqish sabab sharoitlari hamda ularga nisbatan qonunchiligimizda ko'rsatilgan tegishli tasir choralarning mavjudligi haqida har bir mamlaktimizning fuqarolarida ko'nikma hamda tushunchalar paydo bo'lishi uchun ijtimioy

saytlarda va internet global tarmoqlardi voyaga yetmaganlar bilan bog'liq elektron tizim joriy etilshi maqsadga muvofiq degan fikrga to'xtanildi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning olidni olishga qaratilgan elektron tizim joriy etiladi. Normativ – hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida “Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning olidini olish va bolalarni talimga jalb qilishga qaratilgan elektron tizimni yaratish to'g'rsida xujjat loyihasi joylashtirildi. Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi xalq talim vazirligining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikni oldini olish, bolalarini talimga jalb qilish maqsadida elektron axborot tizimni joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanishi mumkin.

Axborot tizimining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanadi:

□ voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikni olidini olishga ko'maklashish va monitoringini olib borish;

□ huquqbuzarlikka moyil bo'lgan voyaga yetmaganlarni bazasini shakllantirish va ular orasida huquqbuzarlik sodir etilishning oldini olish uchun manaviy va marifiy darslarni olib borish;

□ maktab o'quvchilari talimga jalb qilishda va darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni nazorat qilish;

□ o'quvchilarni talimga jalb etish yuzasidan oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish oraganlari, talim va sog'liqni saqlash muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo kommissiya, ichki ishlar oraganlari hamkorligining samaradorligini oshirish choralari ko'rish.

Albatta, bu joriy etilgan tizim orqali mamlakatimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilish mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar haqida huquqiy axborot va bu borada respublika hukumati tomonidan amalga oshirayotgan islohatlari hamda ularning oldini olish chora-tadbirlari haqida faoliyat yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'rsida”gi Qonuni talabalariga binoan yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga bag'ishlangan va «Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish» deb nomlangan 3-bobi aynan quyidagi masalalar bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hamda qonunga muvofiq har bir yosh fuqaroning huquqlari va erkinliklari kafolatlanadi. Yosh fuqarolarning huquqlari va erkinliklari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini biror bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi hamda bunday cheklash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Davlat voyaga yetmaganlarni jazoni ijro etish muassasalarida va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida saqlashda shaxsning huquqlariga va qadr-qimmatiga hurmat qilinishiga, insonparvarlik prinsiplariga rioya etilishini kafolatlaydi. Voyaga yetmaganlar uchun ular sodir etgan huquqbuzarlikning og'irlik darajasi va ularning yoshi hisobga olingan holda jazoni ijro etish muassasalarida va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq tabaqalashtirilgan rejimda saqlash nazarda tutiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash faoliyatini ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar, tuman va viloyat

hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamkorlikda tashkil etadi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan bevosita ishlash tayanch punktlari profilaktika inspektorlari hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (bo'linmalari, guruhlari) voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yurtimizda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishning barvaqt oldini olish va ularning oqibatlarini minimallashtirish borasida va yoshlarni vatan ravnaqiga va jamiyatga nafi tegadigan faoliyat bilan shug'ullanishlarini amalga oshirish bo'yicha mamlaktimizda bir qancha islohotlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son qonuni.

2. Таштемиров А. А. и др. Нуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. - 2023. - Т. 6. - №. 12. - С. 454-461.

3. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар о'ртасида нуқуқбузарликлар профилактикаси бо'йича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. - 2023. - Т. 2. - №. 25. - С. 32-40.

4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. О'. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. - 2024. - Т. 1. - №. 7. - С. 135-138.

5. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технологиуа в современном мире. - 2024. - Т. 3. - №. 12. - С. 59-61.

6. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo 'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследованиуа. - 2024. - Т. 3. - №. Maxsus son 12. - С. 38-42.

7. Аминов Ш. Н., Мирсалихова Г. А. Ёшларда экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш йўналишлари //Innovation in the modern education system. - 2025. - Т. 6. - №. 49. - С. 215-225.

8. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследованиуа. - 2024. - Т. 3. - №. 12. - С. 51-52.

9. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технологиуа в современном мире. - 2024. - Т. 3. - №. 12. - С. 59-61.

10. Аминов Ш. Н. Терроризм ва экстремизмнинг жамиyat барqарорлигига таъдиди //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2025. – Т. 8. – №. 2. – С. 15-22.
11. Аминов Ш. Н. Возникновение терроризма, а также факторы, его вызывающие //Международная конференция академических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 167-173.
12. Мирзахмедов А. М., Аминов Ш. Н., Холматов Г'. М. Таълим сифати-ижтимоий тараqqиёт омили //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 424-432.
13. Холматов Г'. М., Аминов Ш. Н. Фарг'она водийсида жадиdлик: миллий маданият муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 848-856.
14. Асракулов М. М., Мирсалихова Г. А. Ички ишлар органлари тезкор-қидирув фаолиятининг вазифаларини ҳал этишда овоз ёзиш воситаларини қo'ллаш тартиби //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – Т. 4. – №. 44. – С. 268-276.
15. Таштемиров А. А. и др. Жамиyatда фуqароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришда иио профилактика инспекторларининг асосий вазифалари //Scientific approach to the modern education system. – 2025. – Т. 3. – №. 35. – С. 91-96.